



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Муҳаммедович Муҳаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев “Хизмат” тушунчасининг иқтисодий кагегория сифатида назарий таҳлили	5
Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Рустам Алижонович Мусабоев Истеъмолчилик хулқининг трансформацион хусусиятлари	11
Аскар Хайдарович Джумаев Жаҳон хўжалигида иқтисодий тизимларнинг қиёсланишининг услубий жиҳатлари	16
Shahobiddin Ziyadullayevich O‘rozov Amir Temur ijtimoiy faoliyatida ratsionallik yondashuvi	20
Lola Nazarovna Xalikova Ijtimoiy himoyalashga oid nazariy qarashlar	24
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Боҳодир Ибрагимович Исроилов, Бобуршоҳ Боҳодир ўғли Ибрагимов Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ ҳуқуқбузарликларини таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари	28
Қулмамат Джонузоқович Мирзаев, Гиёс Турабекович Юлдашев Республикамизда деҳқончиликни инновацион асосда ривожлантиришни асосий тараққиёт тенденциялари	32
Жунайдулло Садиевич Файзиев Умумий овқатланиш корхоналарини дастурий – аппарат комплексларидан фойдаланиб автоматлаштириш	37
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Раҳматулла Хидирович Эргашев Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари кооперацияси ва унинг самарадорлигини ошириш	42
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Зариф Юсупович Аминов Инсон иқтисодий хавфсизлигига ишчи кучи сифатининг таъсири	49
Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashdagi kamchilik va muammolar	53
Bekjon Shukurillayevich Musayev Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilishning uslubiy asoslari	57
Sadoqat Qudratovna Bultakova Xizmat ko‘rsatish sohasi va uning O‘zbekistonda o‘shish dinamikasi	63
Luiza Komilovna Haydarova Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tatbiq etish zaruriyati va omillarini tahlili	67
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	74

ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ

Akram Abduraxmonovich Azizqulov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, dotsent, fal.f.n.

XATIRCHI TUMANIDA ZİYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotasiya: mazkur maqolada Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida me'moriy tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar hamda masjidlarining hududda ziyorat turizmini rivojlantirishdagi imkoniyatlari falsafiy-metodologik jihatdan tahlil etilgan. Maqolada shuningdek tumanda ziyorat turizmini rivojlantirishdagi muhim hisoblangan obyektlar, ularning bugungi kundagi holatlari yoritib beriladi. Tumanda ziyorat turizmini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar maqolada ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: Xatirchi tumani, ilohiyot ulamolari, tariqat pirlari, muqaddas qadamjolar, turistik obyekt, ziyorat turizmi.

Kirish. Ilm-fan va madaniyat taraqqiyotining markazlaridan biri boʻlgan Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar va allomalar, ularning jahon ilm-faniga bebaho hissa qoʻshgan, ular tomonidan yaratilgan asarlar va taʼlimotlari xalqaro miqyosda keng eʼtirof etilgan. Ayniqsa, islom dini va madaniyatini yuksaltirishda beqiyos xizmat qilgan mutafakkirlarimiz musulmon olamida eʼtirof etiladi hamda ulugʻlanadi. Bugungi kunda ular tomonidan barpo etilgan betakror arxitektrua yodgorliklari, maqbaralari, muqaddas qadamjolari ziyorat turizmining muhim obyektlarini tashkil etmoqda.

Respublikamizda turizmning barcha turlarini, jumladan, ziyorat turizmini rivojlantirishning imkoniyatlari kengdir. Vatanimizning barcha shaharlarida, viloyat va tumanlarida islom ilohiyotining buyuk olim va ulamolari, tariqat pirlarining maqbaralari mavjud. Xususan, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida ham ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlar mavjudligini taʼkidlash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritishda S.Mustafoyev va M.Ablayev tomonidan nashr ettirilgan “Turonzamin aziz-avliyolari va ulamolari tazkiri” va “Suyundik Mustafonurotoiyning Xatirchilik tabarruk siymolari”. (–T.: “Muharrir”. 2010yil) va “Miyonkol yoxud Navoiy viloyati ulamolari” (T.: “Sano-standart” 2016y) asarlaridan, H. Mavlonovning “Shayx Gadoy Selkin hazratlari” (Navoiy: “Navoiy”. 2006y) asarlaridan hamda X.Qurbonov (va boshq) tomonidan chop ettirilgan “Xatirchi tumani: kecha va bugun” kabi asarlar va maqolalardan keng foydalandik. Mazkur asarlardagi maʼlumotlar asosida Xatirchi tumanida yashab oʻtgan islom ilohiyotining ulamolari va tariqat pirlarining tarjimai hollari yoritishga harakat qildik.

Tadqiqot metodologiyasi. Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritishda obyektivlik, retrospektiv tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xatirchidagi koʻplab hududlarida (qishloqlarida) islom ilohiyotining ulamolari, ayniqsa tasavvuf tariqatining pirlari va avliyolarining marqadlari (qabrlari) mavjud boʻlib, bugungi kunda ularning har qaysilari gavjum ziyoratgoh hisoblanadi. Tumanda bunday muqaddas qadamjolarlarning soni 20dan ortiq boʻlib, Badr Ota, Shayx Gadoy Selkin, Najva Ota, Muhammad Huduriy, Xoʻjaqul Eshon bobo, Sayyid Ota, Xoʻja Jarroh bobo, Qoshgʻar Ota, Tangriberdi Eshon bobo, Qaro bobo, Polvon Ota, Suluk ota, Langar Ota, Sayyid Amir Xalil Maydoniy, Hazrati Azizon Mavlono Vali, Abdurashid Xalifa, Qovus Ota, Mallatoʻn Ota, Mulla Juma, Rayim Devona ziyoratgohlari shular jumlasidandir[1.312-325].

Avvalo, bu ziyoratgohlarning tarixiy mohiyati bilan tanishadigan boʻlsak, ularda tarixiy shaxslar bilan birgalikda, tarjimai holi va ismi nomaʼlum boʻlganlari, hatto ramziy qabrlar ham mavjud. Badr Ota, Shayx Gadoy Selkin, Muhammad Huduriy, Xoʻjaqul Eshon bobo, Tangriberdi Eshon bobo, Sayyid Amir Xalil Maydoniy, Hazrati Azizon Mavlono Vali, Abdurashid Xalifa, Mulla Juma, Rayim Devona ziyoratgohlarida dafn etilgan ulugʻ zotlar tarixiy shaxslar hisoblanadi.

Xatirchi tumanidagi Ibn Sino mavzesida joylashgan Badr ota ziyoratgohida yassaviya tariqatining yetuk murshidi - piri dafn etilgan. Badr ota ismli murshid - Mavlono Badriddin Muxammad Hazrati Zangiota to'rtinchi xalifasi. Yassaviya tariqatining valiy zotlaridan bir hisoblangan. Otarlari shayx Mahmud ota bo'lgan. Badr Otaning vafotlari xijriy 681 yil, ya'ni melodiy 1283yilga to'g'ri keladi. Badr ota haqida ma'lumot Hazrati Zangi ota nomi kiritilgan barcha manbalarda tilga olinadi [1.316]. Maqbara yonida tarixiy jome' masjid mavjud bo'lib, Amir Nasrullaxonning buyrug'iga asosan 1800 yilda qurilgan [4.176]. Qabr usti tiklangan, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratilgan.

Shayx Gadoy Selkin ziyoratgohi Xatirchi tumanining markazida joylashgan bo'lib, unda naqshbandiya tariqatining avliyolaridan hisoblangan - Abdurahmon hazratlari dafn etilgan. Bu zot asli Toshkentning Zangiota mavzesidan bo'lib, 1340-1345 yillar oralig'ida tavallud topgan. Bahouddin Naqshbandning shogirdlaridan hisoblangan. Ustozining tavsiyasiga ko'ra, Xatirchida xojagoniya tariqatini murshidi va targ'ibotchisi sifatida faoliyat olib borgan. Manbalarda keltirilishicha, Abdurahmon hazratlari 73 yil umr ko'rganligi qayd etiladi. Mazkur ziyoratgohni Boborahim Mashrab, Qosimshayx Azizonlar kelib ziyorat qilganligi qayd etiladi. Maqbara yonida shayxning nomi bilan ataluvchi jome' masjidi ham bor. Ziyoratgoh ozoda va obod bo'lib, ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Xo'jaqul Eshon bobo qishlog'ida ziyoratgoh mavjud. Ziyoratgohda darvesh va zohid bo'lgan Xo'jaqul Eshon bobo dafn etilgan. Keyinchalik qishloq ham shu nomda atalib kelgan. Ziyoratgohda maqbara tiklangan.

Xo'jaqul Eshon bobo qishlog'i yaqinida Muhammad Xuduriy ziyoratgohi mavjud bo'lib, mahalliy aholi uni "Ko'pin Ota" deb e'tirof etishadilar. Bu zot o'z davrining yetuk muhaddis olimlaridan bo'lgan. Ziyoratgohda uning qabri mavjud, ammo munosib maqbara tiklanmagan.

Xatirchidagi Xonaqoh qishlog'ida Tangriberdi Eshon bobo ziyoratgohi bor. Tangriberdi Eshon bobo XV-XVI asrlarda Qashg'ardan Xatirchiga ko'chib kelgan sayyidlar avlodining vakili bo'lgan. Qabri qishloqning "Qashg'arlar qabristoni"da joylashgan. Qishloqda Tangriberdi Eshon bobo tomonidan asos solgan masjid bo'lib, u yerda uning ramziy qabri bor. Mahalliy xalq tomonidan ziyorat qilinib kelinadi. Ziyoratgoh obod va ozoda bo'lib, ziyoratchilar uchun barcha qulayliklar mavjud (1.316).

Xatirchining Oltinsoy mavzesidagi maydonsoy qishlog'ida Yassaviya tariqatining ulug' pirlaridan hisoblangan Sayyid Amir Halli Maydoniy va hazrati Azizon Mavlono valilarning qabrlari mavjud. Ikkalasi ham bir davrda, ya'ni XVI asrda yashab o'tishgan. Ularning karomatlari haqida yassaviya tariqati pirlari haqidagi manbalarda batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bu zotlar tarixiy shaxslar bo'lib, o'z davrining yetuk valilari darajasida bo'lgan. Biroq, qabrlariga qabr toshi ham quyilmagan, maqbara ham bunyod etilmagan.

Xatirchi tumanidaga ayrim ziyoratgohlarda dafn etilgan ulug'larning to'liq nomlari va tarjimai hollari haqida ma'lumot mavjud emas. Jumladan, Xatirchi qo'rg'onidagi Shovot anhorining yonida Xo'ja Jarroh bobo nomi bilan ataladigan ziyoratgoh bor. Mazkur ziyoratgohda Xo'ja Jarroh boboga nisbat beriladigan qabr ham mavjud. Mahalliy xalq vakillarining aytishicha qabr tepasida tug' ham bo'lgan. Ziyoratchilar bu zotni shariat va tariqat ilmini yaxshi bilgan «Avliyo bobo» deb ulug'lashadi. Og'zaki manbalarda jarrohlik, tabobatdan ham xabardor bo'lgan ekan [1]. Jarroh boboning haqiqiy ismi va qachon yashab o'tganligi noma'lum. Shuningdek, tumanning Koriz qishlog'ida Hazrat Qoshg'ar ota nomi bilan ataluvchi ziyoratgoh mavjud bo'lib, mahalliy aholi vakillari bu zotni tasavvuf tariqatining pirlaridan biri, ulug' valiy va karomatli inson sifatida ulug'laydilar. Keksalarning kayd etishicha, bu joy o'rganilgan. Olimlar bu zot X asrlarda Qoshg'ar viloyatidan kelgan tariqat pirlaridan biri ekanligini va shu yerda dunyodan o'tganligini e'tirof etgan [4.189]. Qashqar otaning ham haqiqiy ismi, yashab o'tgan yillari, tariqatning qaysi yo'nalishining murshidi ekanligi ham noma'lum. Qabr yonida Qashg'ar Ota nomi bilan ataluvchi. Qabr ustiga sag'ana qurilmagan.

Tumanda Oltinsoydan yuqoridagi Murdash qishlog'ida «Qorabobo» nomi bilan ataluvchi ziyoratgoh mavjud. Mahalliy xalq «Qori» yoki «Qari («keksa») bobo» shaklida ham atalganini eslaydi. Ayrim hikoyachilar «Uzun bobo» deydi. Chunki, qabrning uzunligi 13 metr. Mahalliy xalq bu kishini valiy zot deb, uning qabrini ixlos bilan ziyorat etadi [4.190]. Mazkur ziyorat-

gohda ham dafn etilgan Qora boboning ham aniq ismi, yashagan yillari haqida ma'lumot yo'q.

Oltinsoy sarhadidagi Xonaqo qishlog'ida «Suluk Ota» deb ataluvchi ziyoratgoh mavjud bo'lib, tog' yonbag'rida qabr ham bor. Qabr ustida tug' tiklangan, ziyoratgoh quyida masjid ham bor. XIX-XX asrlarda yashab o'tgan shu qishloqlik fozil kishilar Mahmadiyor So'fi, Safar Xalifa, Mullo Tohirlardan yetib kelgan og'zaki bayonlarda “bu zotning musofir yo'lovchi bo'lganligi, tariqatda peshvo ekanligi, yo'lda bemor bo'lganligi, ahvoli og'irlashgach, yonidagi muridlariga minib borayotgan tuyasi qayerda cho'ksa, o'sha joyga dafn etishlarini so'raydi. Bu hozirgi qabri bor Xonaqo qishlog'iga to'g'ri keladi. Qabrining quyisida muridlari tomonidan dastlab xonaqo qurilgan, keyinchalik masjidga ko'shib yuborilgan. Masjid va yonidagi kekxa tutlarning yoshi 400 yillar deb chamalanadi” [1.318]. Mazkur ziyoratgohda dafn etilgan shaxsning ham ismi, nasabi, yashab o'tgan yillari ma'lum emas.

Tumandagi Qovoq qishlog'ida «Mullo Xiyol bobo» deb nomlangan ziyoratgoh bor. Qabr shu zotga nisbat beriladi. Qabr yonida bu zotni avliyoligidan darak beruvchi tug' ko'tarilgan [1.319]. Mahalladagi kekxa yoshdagi kishilarning aytishicha, Mullo Xiyol dehqonchilik bilan turmush kechirgan. Mullo Xiyol bobo suv yuzasidan bemalol yurib o'tishlar kabi karomatga ega bo'lgan ekan. Mahalliy xalq vakillari bu zotni «Avliyo bobo» deb ulug'lab, ziyorat etadi. Ziyoratchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan bo'lib, qabrga sag'ana o'rnatilgan. Ziyoratgoh ozoda va obod qilingan. Mullo Xiyol boboning aniq ismi, yashab o'tgan yillari, tariqatning qaysi yo'nalishining murshidi- piri, ustozlari ekanligi noma'lum.

Xatirchi tumanidagi Oqtog' tepasidagi Langar qo'rg'onida Langar Ota nomiga nisbat berilgan ziyoratgoh mavjud. Qabrning aniq o'rni xususida turlicha fikrlar bor. Qayd etilishicha, bu zot hazrati Abdulxoliq G'ijduvoniyning muridlaridan [1.320]. Qabrga sag'ana o'rnatilgan bo'lib, uning yonida masjid ham bor. Ziyoratgoh tog' bag'rining so'lim go'shasida joylashgan bo'lib, ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Langan Ota haqida ham aniq ma'lumotlar juda kamchilikni tashkil etadi.

Tumandagi Polvon Ota qishlog'ida ziyoratgoh mavjud bo'lib, unda xorazmlik Pahlavon Maxmud - Puryovaliyga nisbat beriladigan qabr bor. Mahalliy aholining hikoya etishlaricha, bu zot Xatirchini qadimda yov bosganda jangga kirgan ekan. Tarixiy manbalarda mazkur ma'lumotlar tasdiqlanmagan. Mahalliy xalq valiy zot sifatida ziyorat etadi [1.320]. Polvon ota ziyoratgohida ham ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratib qo'yilgan. Polvon Ota haqida ham aniq va to'liq ma'lumotlar mavjud emas.

Uchqora qishlog'ining shimol tomonida tog' bag'riga joylashgan Qora tovun manzilida Qovus Ota qabri bor. («Kovus» buzib aytilgan shakli bo'lib, aslida «qabiz» - «qabziyat» so'zidan olingan) Valiy zot deb ulug'lanadi. Bu yer mahalliy aholi tomonidan ziyorat etiladi va ularning aytishicha, qabziyatga uchragan qoramollar ham shu yerga shifo vajidan olib boriladi [4.194]. Shuningdek, qishloqda Malla to'n Otaga nisbat beriladigan ziyoratgoh bor bo'lib, bu zotni valiy bo'lganligi, u insonlarni to'g'ri yo'lga boshlashda e'tiborda bo'lganligi mahalliy xalq orasidagi og'zaki hikoyalarda mashhur [1.323].

Xatirchi tumanining Bog'chakalon qishlog'idagi Oq masjid majmuasida ziyoratgoh mavjud. Mazkur ziyoratgohda Sayyid Ota qabri joylashgan bo'lib, ustiga tiklangan. Sayyid Ota - Sayyid Axmad ibn Sayyid Abu Bakr milodiy 1292 yoki 1311 yillarda vafot etgan. Yassaviya tariqatining ulug' shayxlaridan biri hisoblanadi [4.188]. Ba'zi manbalarda Toshkentda, ba'zilarida Xorazmda tavallud topgan, degan qarashlar bor. Hazrati Zangi otaning yetuk xalifasi. Ulug' valiylik sifati va tariqat yo'lidagi namunalari bilan mashhur. Manbalarda umrining so'nggini Orol dengizi bo'ylarida o'tkazganligi va o'sha joyda vafot etganligi ta'kidlanadi [9.257] Demak, Sayyid Otaning Bog'chakalondagi qabri ramziy hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirishda katta imkoniyatlar mavjud. Avvalo tumandagi barcha ziyorat obyektlarini obodonlashtirish va ziyoratchilar uchun shart-sharoitlarni yaratish kerak bo'ladi. Jumladan;

Birinchidan, Shayx Gadoy Selkin, Xo'jaqul Eshon bobo, Sayyid Ota, Tangriberdi Eshon bobo, Langar Ota, Polvon Ota ziyoratgohlari obod etilgan va ziyoratchilar uchun barcha qulayliklar mavjud.

Ikkinchidan, Muhammad Huduriy, Xo'ja Jarroh bobo, Qoshg'ar Ota, Qaro bobo, Sayyid

Amir Xalil Maydoniy, Hazrati Azizon Mavlonov Vali, Abdurashid Xalifa, Qovus Ota, Mallato‘n Ota ziyoratgohlarida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, qabrlarga maqbara bunyod etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek ziyoratchilar uchun shart-sharoit yaratish lozim.

Uchinchidan, Muhammad Huduriy, Sayyid Amir Xalil Maydoniy, Hazrati Azizon Mavlonov Vali ziyoratgohlarida maqbaralar bunyod etish zarur.

To‘rtinchidan; Xo‘ja Jarroh bobo, Qoshg‘ar Ota, Qaro bobo, Suluk ota, Langar Ota, Qovus Ota, Mallato‘n Ota, Polvon Ota ziyoratgohlarda dafn etilgan shaxslar haqida ma‘lumotlar to‘lashga oid ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish va tadqiqotchilar uchun sharoit yaratib berish lozim.

Beshinchidan; tumandagi o‘rganilmagan tarixiy obyekt va maqbaralarni mutaxassislar tomonidan to‘liq tadqiq etilishini ta‘minlash zarur. Ziyorat obyektlarini kengroq targ‘ibot va tashqivot etish maqsadga muvofiqdir. Ziyoratchilarga har bir ziyorat obyektlari to‘g‘risida buklet yoki boshqa ko‘rinishdagi materiallar va ma‘lumotlar bilan tanishish imkoniyatini yaratish zarur.

Ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiyotning serdaromad sohasi, balki etnomadaniyat yutuqlarini xalqaro hamjamiyatga keng targ‘ib etish omilidir. Bundan tashqari ziyorat turizm fuqarolarimizda milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz haqidagi tasavvurlarini oshirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.Mustafoyev, M.Ablayev. Turonzamin aziz-avliyolari va ulamolari tazkisasi T.-“Sano-standart”, 2015 y. -312 bet.
2. Suyundik Mustafonurotoiy. Xatirchilik tabarruk siymolar. –T.: “Muharrir”. 2010.
3. Suyundik Mustafonurotoiy. Miyonkol yoxud Navoiy viloyati ulamolari.T.:”Sano-standart” 2016y.
4. Xatirchi tumani: kecha va bugun” (matn): ilmiy ommabop/X.Qurbonov (va boshq) –Toshkent: ”SAHHOF” nashriyoti, 2021. -384 b.
5. Xatirchi tarixidan lavhalar / Respublika ilmiy anjumani materiallari / Toshkent, «Zilol buloq» nashriyoti, 2022. - 336 b + 20 rang.v.
6. Mavlonov H. Shayx Gadoy Selkin hazratlari. –Navoiy: “Navoiy”. 2006y.
7. A.Azizqulov. Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari//“TURIZM SOHASI MILLIY IQTISODIYOTNING MUHIM DRAYVERI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI(2023 yil 25 noyabr) SAMARQAND – 2023
8. A.Azizqulov. Andigon – Xatirchi tumanidagi ekoturizm obyekti//“TURIZM SOHASI MILLIY IQTISODIYOTNING MUHIM DRAYVERI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI(2023 yil 25 noyabr) SAMARQAND – 2023y.
9. Islom ensiklopediyasi.-T.:O‘zME 2004y.

<p>А.Азизкулов</p> <p>Возможности развития паломнического туризма в Хатырчинском районе</p> <p>Аннотация: в данной статье философско-методологически проанализированы архитектурно-исторические памятники и священные места Хатырчинского района Навоийской области, а также возможности мечетей в развитии паломнического туризма на данной территории. В статье также освещены объекты, которые считаются важными в развитии паломнического туризма в районе, их состояние на сегодняшний день. Изложены предложения и рекомендации по развитию паломнического туризма в районе.</p> <p>Ключевые слова: Хатырчинский район, учёные-теологи, наставники тариката, святые, туристический объект, паломнический туризм.</p>	<p>A.Azizkulov</p> <p>Opportunities for developing pilgrimage tourism in Khatyrchi district</p> <p>Abstract: this article philosophically and methodologically analyzes the architectural and historical monuments and sacred places of the Khatyrchi district of the Navoi region, as well as the possibilities of mosques in the development of pilgrimage tourism in this territory. The article also highlights objects that are considered important in the development of pilgrimage tourism in the area, and their condition today. Proposals and recommendations for the development of pilgrimage tourism in the area are outlined.</p> <p>Keywords: Khatyrchi district, theologians, tariqa mentors, holy places, tourist site, pilgrimage tourism.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.